



## XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALAR VA MOLİYAVIY RESURLARNI JALB QILISHDA UCHRAYOTGAN TO'SIQLAR HAMDA EKOLOGIK YONDASHUVLAR

**Shonazarova Shohsanam**

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti*

ORCID: 0009-0004-9907-3599

[shonazarovashohsanam@gmail.com](mailto:shonazarovashohsanam@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish uchun investitsiyalar, kredit va moliyaviy resurslarni jalb etish holati tahlil qilinadi. Xususan, moliyalashtirishdagi asosiy muammolar, garov ta'minoti, infratuzilma yetishmovchiligi va huquqiy to'siqlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ekologik jihatlar, barqaror turizm, yashil texnologiyalar va ekoturizm imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Deskriptiv, komparativ, ekologik va SWOT tahlillar asosida asosiy muammolar, imkoniyatlar hamda barqaror turizm rivoji uchun strategik takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ekoturizm, investitsiya, turizm infratuzilmasi, moliyaviy vositalar, xalqaro kreditlar, ekologik barqarorlik, tarixiy meros.

## ПРЕПЯТСТВИЯ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ И ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ СФЕРУ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

**Шоназарова Шохсанам**

*Ташкентский институт инженеров  
ирригации и механизации сельского хозяйства*

**Аннотация.** В данной статье анализируется текущее состояние привлечения инвестиций, кредитов и финансовых ресурсов для развития туристической отрасли Хорезмской области. В частности, рассматриваются основные проблемы финансирования, обеспечение залога, нехватка инфраструктуры и правовые барьеры. Кроме того, особое внимание уделено экологическим аспектам, устойчивому туризму, "зелёным" технологиям и возможностям экотуризма. На основе дескриптивного, компаративного, экологического и SWOT-анализов разработаны стратегические предложения по решению основных проблем, использованию возможностей и развитию устойчивого туризма.

**Ключевые слова:** экотуризм, инвестиция, туристическая инфраструктура, финансовые средства, международные кредиты, экологическая устойчивость, историческое наследие.

## BARRIERS AND ECOLOGICAL APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENTS AND FINANCIAL RESOURCES IN THE TOURISM SECTOR OF THE KHOREZM REGION

**Shonazarova Shohsanam**

*Tashkent Institute of Irrigation and  
Agricultural Mechanization Engineers*

**Abstract.** *This article analyzes the current state of attracting investments, loans, and financial resources for the development of the tourism sector in the Khorezm region. In particular, it examines the main challenges in financing, collateral security, infrastructure shortages, and legal barriers. Moreover, special attention is given to ecological aspects, sustainable tourism, green technologies, and ecotourism opportunities. Based on descriptive, comparative, ecological, and SWOT analyses, strategic proposals have been developed to address key issues, leverage opportunities, and promote sustainable tourism development.*

**Keywords:** *ecotourism, investment, tourism infrastructure, financial resources, international loans, ecological sustainability, historical heritage.*

### **Kirish.**

Turizm — iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, investitsiyalarni jalb etishda muhim o'rin tutadi. Xorazm viloyati boy tarixiy va madaniy merosga ega bo'lishiga qaramay, ushbu sohani rivojlantirish jarayonida moliyaviy, huquqiy va ekologik muammolar mavjud. Bugungi kunda barqaror turizm konsepsiyasi doirasida ekologik xavfsizlik va moliyaviy yondashuvlar birgalikda tahlil qilinmoqda. Turizmni rivojlantirishda nafaqat investitsiya va kredit masalalari, balki ekologik barqarorlik ham alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda ekologik muammolar global darajadagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi hamda ekologik barqarorlikni ta'minlovchi loyihalar xalqaro tashkilotlar tomonidan keng moliyalashtirilmoqda. Shu sababli, Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishda ekologik jihatlarni inobatga olish har tomonlama maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, turizmni moliyalashtirish, yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlashda kredit va investitsiya tizimining samaradorligi ham muhim rol o'ynaydi.

Xorazm viloyati o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, noyob tabiiy manzaralari va arxeologik obidalari bilan nafaqat respublika, balki xalqaro turizm bozori uchun ham katta salohiyatga ega hududlardan biridir. Ushbu salohiyatdan samarali foydalanish, avvalo, to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalar, qulay moliyaviy infratuzilma va ekologik yondashuvlarning uyg'unligiga bog'liq. Biroq amaliyotda turizmga investitsiyalarni jalb qilish jarayonida bir qator muammolar va to'siqlar mavjud. Jumladan:

- turizm subyektlari uchun uzoq muddatli, past foizli kredit resurslarining yetishmasligi;
- xususiy sektor uchun kafolat mexanizmlarining zaifligi;
- moliyaviy tashkilotlar va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida uzviy hamkorlikning yo'qligi;
- xorijiy investorlarga erkin kirish imkoniyatlarini cheklovchi normativ-huquqiy to'siqlar;
- ekologik talablarning investitsiya qarorlariga kiritilmasligi yoki inkor etilishi.

Bunday sharoitda zamonaviy tahliliy usullar yordamida hududiy investitsiya muhitini baholash, barqaror turizm rivojiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning *ilmiy yangiligi* quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Xorazm viloyati turizmga investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolar ekologik yondashuv bilan uyg'un holda tahlil qilindi;
- SWOT va komparativ tahlillar asosida barqaror turizm rivoji uchun strategik takliflar ishlab chiqildi;

– Ekoturizm salohiyati va ekologik xavf-xatarlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash yo'llari aniqlandi.

### Adabiyotlar sharhi.

Xorazm viloyatida turizm sohasiga investitsiyalar va moliyaviy resurslarni jalb qilish, shuningdek ekologik yondashuvlarni o'rganishda bir nechta mahalliy va xalqaro ilmiy manbalar, statistika hisobotlari va nazariy ishlanmalarga tayanildi. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan 2020–2024 yillarda e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlar tadqiqotning asosiy statistik asosini tashkil etdi. Bu hujjatlarda Xorazm viloyatiga yo'naltirilgan umumiy investitsiyalar, ularning manbalari, yo'nalishlari va ekologik ko'rsatkichlarga ta'siri aniq bayon etilgan. Ayniqsa, davlat dasturlari va xorijiy kredit liniyalarining roli muhim o'rin egallaydi.

Hududiy darajada Xorazm viloyati hokimligi tomonidan ishlab chiqilgan investitsiya dasturlari va mahalliy infratuzilma loyihalari orqali joylardagi amaliy holat o'rganildi. Ular viloyatda mavjud moliyalashtirish tizimi va ekologik masalalarning investitsiya qarorlariga ta'sirini ko'rsatib berdi.

Nazariy asos sifatida Porterning "Raqobat ustunligi" konsepsiyasi (1985) va Kotlarning (2012) ekologik marketing va barqaror rivojlanish modellaridan foydalanildi. Ularning yondashuvlari investitsiya muhitining tahlilida qo'llanilgan SWOT va komparativ tahlillarni asoslashga xizmat qildi.

Xolbo'tayev (2021) O'zbekistonda hududiy turizm investitsiyalari infratuzilmasini tahlil qilgan, Xudoyberganova (2022) esa Xorazm viloyatida ekoturizm loyihalarini moliyalashtirishdagi muammolarni yoritgan. Ibragimov (2020) SWOT yondashuvi orqali turizm sektorining zaif jihatlari va imkoniyatlarini ko'rsatgan.

Ekoturizm va ekologik xavfsizlik masalalari bo'yicha Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Turizm va madaniy meros universiteti tadqiqotchilarining maqolalari nazariy asos bo'ldi. Xususan, 2023-yilda chop etilgan "Turizm va ekologik xavfsizlik" nomli maqola ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi investitsiyalar o'rni va xavflarini tahlil qiladi.

Xalqaro manba sifatida UNWTO (2023) tomonidan e'lon qilingan global hisobotda barqaror energiya manbalariga asoslangan turizm loyihalariga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi tahlil qilingan. UNEP (2022) — Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit dasturining chiqindilar boshqaruvi, ekologik xavflarni minimallashtirish va "yashil investitsiyalar" bo'yicha tavsiyalari asos sifatida olingan.

Bundan tashqari, Jahon banki va UNDP tomonidan tayyorlangan ekologik investitsiyalar haqidagi xalqaro tahliliy hisobotlar, xorijiy investorlar uchun xavfsiz va barqaror muhit yaratish mexanizmlari bo'yicha dolzarb tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi manbalar asosida Xorazm viloyatida turizmga investitsiya jalb qilish tizimi, ekologik xavf-xatarlar va to'siqlar keng yoritilib, nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unlashtirildi.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda Xorazm viloyatida turizm sohasiga investitsiyalar va moliyaviy resurslarni jalb qilish holati, mavjud muammolar hamda ekologik yondashuvlar tizimli o'rganildi. Tadqiqotning nazariy asosini investitsiyalarni baholash, turizm sohasining infratuzilmasini tahlil qilish va barqaror ekologik rivojlanish tamoyillari tashkil etdi.

Tahlil jarayonida quyidagi metodlar va yondashuvlardan foydalanildi: Deskriptiv (ta'rifiy) tahlil — Xorazm viloyatida turizmga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, manbalari va yo'nalishlarini yillik dinamikada tahlil qilish orqali mavjud tendensiyalar aniqlab berildi. Davlat statistika qo'mitasi va hududiy hisobotlarga asoslangan grafik va jadval shaklidagi taqdimotlar bilan mustahkamlandi.

Komparativ (taqqoslov) tahlil — Xorazm viloyatining turizm sohasi rivoji Buxoro viloyati bilan qiyoslab o'rganildi. Bu yondashuv orqali turizmga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi, infratuzilma holati va ekologik yondashuvlarning hududlar kesimidagi farqlari ko'rsatib berildi.

SWOT tahlil — Turizm sektoriga investitsiyalar jalb qilishdagi ichki kuchli va zaif tomonlar, tashqi imkoniyatlar va xavf-xatarlar aniqlab chiqildi. Bu metod strategik tavsiyalar ishlab chiqishda qo'l keladi.

Ekologik tahlil — Viloyatdagi turistik qishloqlar, madaniy meros obyektlari va "Arda Xiva" majmuasi kabi ob'ektlardagi ekologik muammolar (chiqindi boshqaruvi, elektr ta'minoti, "yashil texnologiyalar"dan foydalanish) o'rganildi. Bu qismda ekoturizm salohiyati va ekologik xavfsizlikni ta'minlash omillariga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotda statistik tahlillar bilan bir qatorda holatlarni baholash uchun xalqaro tajriba (UNWTO, UNEP, Jahon banki hisobotlari) ham o'rganilib, mahalliy sharoitga moslashtirishga harakat qilindi.

Metodologik yondashuvlarning uyg'unligi tadqiqot natijalarini kompleks yoritish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Xorazm viloyatida 2024-yil holatiga ko'ra, 260 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, asosiy qismi qadimiy Xiva shahrida joylashgan. Uning Ichan qal'a qismi esa UNESCOning (1990) Jahon merosi qo'mitasi hisobiga kiritilgan. Bugungi kunda viloyatda ko'plab loyihalar amalga oshirildi va haliyam davom etmoqda. 2025-yilda Xiva shahrida "Arda Xiva" turistik majmuasi ochildi va foydalanishga topshirildi. Ushbu loyiha umumiy qiymati 200 million AQSH dollariga baholangan bo'lib, xususiyl investitsiyalar va davlat-xususiyl sheriklik asosida amalga oshirildi. Loyihaning yillik quvvat 3 million sayyohni tashkil etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu majmuaning ochilish marosimida ishtirok etdi va uning ahamiyatini yuqori baholadi. Majmua G'ovukko'l bo'yida 25 gektar maydonda qurilgan bo'lib, qadimiy shahar muhitiga moslashtirilgan binolar, 1000 o'ringa ega 20 ta zamonaviy mehmonxona, akvapark, attraksionlar, amfiteatr va boshqa ko'ngilochar maskanlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, hunarmandchilik uylari, sharq bozori, muzeylar va qayiqlarda sayr qilish imkoniyatlari ham mavjud (Zamin.uz, 2024). Viloyat bo'yicha 2025-yilda 812 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda, umumiy qiymati 1,32 milliard dollar. Bu loyihalarining muhim qismi turizm infratuzilmasiga qaratilgan. Ammo bu loyihalar ko'proq yirik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keladi, kichik biznesga yetarli imkoniyatlar yaratilmagan (Hokimlik, 2025).

Quyidagi manbalar Xorazm viloyati turizmiga investitsiyalar kiritishning asosiy manbalari hisoblanadi:

1. *Davlat byudjeti asosiy investitsiya manbalaridan biridir.* Turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun davlat dasturlari doirasida viloyatga yillik asosda mablag' ajratiladi. Xorazm viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda muhim moliyaviy manbalardan biri bu – O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisoblanadi. Ushbu mablag'lar asosan Turizm va madaniy meros vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi orqali yo'naltiriladi. Davlat byudjeti mablag'lari odatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari hamda tegishli davlat dasturlari, xususan, "2022-2026 yillarda turizmni rivojlantirish konsepsiyasi" doirasida ajratiladi. Masalan, 2023-yilda Xorazm viloyatining "Yangi O'zbekiston" mahallasida turistik xizmatlarni kengaytirish maqsadida davlat byudjetidan 5 milliard so'm miqdorida mablag' ajratilgan.

2. *Xorijiy investitsiyalar.* Xorazm viloyatining turizm salohiyatini oshirishda xorijiy investitsiyalar ham muhim o'rin egallaydi. Manba sifatida asosan Turkiya, Janubiy Koreya, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa davlatlarda jalb etilgan xususiyl sarmoyalar ajralib turadi. Mazkur investitsiyalar odatda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Turizm

va madaniy meros vazirligi bilan hamkorlikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy sarmoyalarni rag'batlantirishga qaratilgan qarorlari asosida jalb qilinadi. Misol tariqasida, 2022-yilda Xiva shahrida Turkiya investorlarining ishtirokida "Silk Road Boutique Hotel" mehmonxonasi qurilib, loyihaga 3,5 million AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritilgan.

3. *Xalqaro donor tashkilotlari mablag'lari.* Xorazm viloyatida barqaror turizmni rivojlantirishda xalqaro donor tashkilotlarining moliyaviy yordam ham katta ahamiyatga ega. Asosiy manbalar sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (UNDP), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa donor agentliklari ko'rsatiladi. Bunday mablag'lar, odatda, xalqaro grant loyihalari, texnik yordam dasturlari yoki ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslar doirasida ajratiladi. Misol uchun, 2023-yilda UNDP tomonidan moliyalashtirilgan "Ekoturizmni rivojlantirish orqali aholini band qilish" loyihasi doirasida Xivaning Ichon-Qal'a hududida turistik xizmatlarni rivojlantirishga 250 ming AQSH dollari ajratilgan.

4. *Davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiyalar.* Turizm sohasida yirik infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi orqali jalb etilayotgan investitsiyalar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu modelda investitsiya manbasi sifatida xususiy sektor ishtirokchilari (mahalliy va xorijiy tadbirkorlar) va davlat tashkilotlari o'zaro hamkorlikda mablag' kiritadilar. Mablag'lar odatda investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan tasdiqlangan DXSh loyihalari doirasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari yoki vazirlar Mahkamasining DXShni qo'llab-quvvatlashga oid qarorlari asosida ajratiladi. Masalan, 2022-yilda Xiva shahrida "Xiva Karavan Saroyi" madaniy-ko'ngilochar majmuasini barpo etish uchun davlat va xususiy sektorlar o'rtasida hamkorlik shartnomasi tuzilgan bo'lib, loyiha umumiy qiymati 18 milliard so'mni tashkil qilgan (Xiva shahar hokimligi, 2022).

5. *Mahalliy byudjet mablag'lari.* Xorazm viloyatida turizm obektlarini kichik hajmda qo'llab-quvvatlash uchun mahalliy byudjet mablag'laridan ham foydalanilmoqda. Bunday mablag'lar viloyat yoki tuman darajasidagi byudjetdan, asosan, hududiy iqtisodiy rivojlanish dasturlari va sektorlar aro kompleks loyihalar doirasida ajratiladi. Mahalliy byudjet mablag'lari tuman hokimlari yoki viloyat turizm boshqarmalari orqali ajratiladi va ular odatda kichik biznes tashabbuslarini, oilaviy mehmon uylari, hunarmandchilik markazlari va sayyohlik xizmatlarini rivojlantirishni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Misol tariqasida, 2023-yilda Urganch tumanida mahalliy byudjet hisobidan 800 million so'm ajratilib, "Do'stlik" mahallasida turistlar uchun mo'ljallangan zamonaviy choyxona va mini-amfiteatr qurilishi amalga oshirilgan (Moliya vazirligi, 2023).

Hozirgi davrda global mavzu hisoblangan ekologiya muammolari viloyat uchun ham dolzarb muammo hisoblanadi. Xorazm viloyati ekotizimi va turizm rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ekologik muammolar – bu mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, tabiiy resurslardan foydalanish darajasi va barqaror turizmni yo'lga qo'yishdagi muhim omillar bilan chambarchas bog'liq. Quyida viloyatning asosiy ekologik muammolari:

✓ *Suv tanqisligi va Orol dengizi fojeasi:* Xorazm Amudaryo havzasida joylashgan bo'lib, suv resurslariga bog'liq hududdir. Orol dengizining qurishi oqibatida iqlimi o'zgarishi va tuproq sho'rlanishi kuzatilmoqda. Bu holat ekotizim barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

✓ *Tuproq sho'rlanishi va degradatsiyasi:* Sug'oriladigan yerlarning katta qismi sho'rlangan. Noto'g'ri sug'orish usullari va drenaj tizimlarining eskirganligi tufayli yer unumdorligi pasaymoqda.

✓ *Biodiversitetning kamayishi:* Hududda o'simlik va hayvonot dunyosining ayrim turlari yo'qolib bormoqda. Bu holat tabiiy bog'lar va yashil hududlarning qisqarishi bilan bog'liq.

✓ *Atmosfera va havo ifloslanishi:* Qishloq xo'jaligida kimyoviy vositalardan ortiqcha foydalanish havo sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Transport vositalarining ko'pligi ham ekologik yuklamani oshiradi.

Viloyatda turizmni rivojlantirishdagi ekologik muammolar:


- *Turistik infratuzilmaning ekologik talabga javob bermasligi:* Baʼzi mehmonxonalar va sayyohlik obyektlari chiqindilarni boshqarish tizimiga ega emas. Bu chiqindilar tabiatga zarar yetkazadi va turistik hududlarning jozibasini yoʻqotadi.
- *Oʻta yuklama ostida qolayotgan tarixiy obidalar:* Xiva kabi tarixiy shaharlar koʻplab sayyohlarni qabul qiladi, ammo bu obidalarni saqlanishiga xavf tugʻdiradi.
- *Sayyohlar faoliyatining nazoratsizligi:* Turistlar tomonidan chiqindi tashlash, madaniy yodgorliklarga zarar yetkazish kabi holatlar mavjud. Bu esa ekologik madaniyatning past darajasini koʻrsatadi.

Bularni inobatga olgan holda, yirik turistik loyihalar ekologik meʼyorlarga mos

holda amalga oshirilishi zarur. “Arda Xiva” majmuasida yashil hududlar, chiqindi utilitatsiyasi va suv tejovchi texnologiyalar kiritilgan ijobiy tajriba boʻldi. Kelgusida ekoturizmni rivojlantirish, masalan, Amudaryo boʻylari, qadimiy qalʼalar va qishloq hududlarida ekologik marshrutlar yaratish dolzarb hisoblanadi.

#### Deskriptiv tahlil (taʼrifiy tahlil)

Xorazm viloyatida turizm sohasiga yoʻnaltirilayotgan investitsiyalar hajmi 2020–2024 yillar oraligʻida boqichma-bosqich oʻsib borgan. Masalan, 2020-yilda bu miqdor 42 mlrd soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, 2024-yil yakuniga kelib 113 mlrd soʻmga yetgan (Vazirlik, 2024). Investitsiyalarning katta qismi mehmonxona va yoʻlovchi infratuzilmasi qurilishiga, shuningdek, tarixiy obidalarni saqlash va restavratsiyalashga yoʻnaltirilgan. Shu bilan birga, davlat byudjeti, xorijiy investorlar va xalqaro moliyaviy institutlar (masalan, Ipak yoʻli jamgʻarmasi) orqali jalb qilinayotgan mablagʻlar miqdorida sezilarli farq mavjud. Shuningdek, xususiy va xorijiy investitsiyalarning nisbiy darajada sekin oʻsayotgani, ularni ragʻbatlantirish zarurligini koʻrsatadi. Xorijiy va xalqaro moliyaviy institutlar hissasi 2020 yildagi 10 mlrd soʻmdan 2024 yilda 31 mlrd soʻmga koʻtarilgan boʻlsa-da, umumiy investitsiya hajmida yetakchi emas. Bu esa hududiy investitsiya siyosatini qayta koʻrib chiqish zarurligini koʻrsatadi. Bu maʼlumotlar quyidagi grafikda aniq koʻrsatilgan (1-rasm) (Qoʻmita, 2024).



**1-rasm. Xorazm viloyatida 2020-2024 yillarda turizm sohasiga yoʻnaltirilgan investitsiyalar**

*Manba:* rasmiy statistik manbalar asosida muallif tomonidan tahlil qilingan.


Jahon bankining 2023-yilgi “Sustainable Tourism for Development” nomli hisobotida ta’kidlanishicha, barqaror turizmga yo’naltirilgan investitsiyalar eng avvalo yashil infratuzilmaga, tarixiy merosni saqlashga va hududiy inklyuzivlikka qaratilishi lozim. Bu tajriba Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan turistik loyihalar, jumladan, “Arda Xiva” majmuasi doirasidagi ekologik va tarixiy yondashuvlar bilan qiyoslanishi mumkin.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo’yicha dasturi (UNEP, 2022) o’z tavsiyalarida turistik hududlarda chiqindi boshqaruvi, havo ifloslanishini kamaytirish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish muhim deb hisoblaydi. Mazkur yondashuv Xivada amalga oshirilgan UNDP loyihasida, hamda “Arda Xiva” majmuasida kuzatilmoqda.

### Komparativ tahlil (taqqoslov tahlil)

Xorazm viloyati va Buxoro viloyatlari O’zbekistonning eng muhim turistik hududlari sirasiga kiradi. Har ikkala viloyat ham o’zining qadimiy shaharlari, tarixiy obidalari, arxitektura yodgorliklari va boy madaniy meros bilan nafaqat ichki, balki xalqaro sayyohlar e’tiborini tortib kelmoqda. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasining rivojlanishi, xorijiy investitsiyalar oqimi va ekologik barqarorlik masalalari bo’yicha bu ikki hudud o’ziga xos jihatlarga ega.

Mazkur tahlilda Xorazm va Buxoro viloyatlari o’rtasida turizm sohasiga yo’naltirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi hamda ekologik loyihalar soni 2020–2024 yillar davomida taqqoslab o’rganiladi. Bu orqali har ikki hududda turizmni rivojlantirishdagi ustuvor yo’nalishlar, mavjud imkoniyatlar va ekologik yondashuv darajasi aniqlanadi. Komparativ tahlil yordamida hududlar o’rtasidagi farqlar, o’xshashliklar hamda istiqboldagi muhim strategik yo’nalishlar yuzasidan xulosalar chiqariladi (UNWTO, 2024). Quyidagi grafik viloyatlar o’rtasidagi farqni yaqqol ko’rsatadi (2-rasm).



**2-rasm. 2020–2024 yillarda Xorazm va Buxoro viloyatlarida turizmga investitsiyalar va ekologik loyihalar sonining komparativ tahlili**

**Manba:** O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi va Davlat ekologiya qo’mitasi manbalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi grafikda 2020–2024 yillar oralig’ida Xorazm va Buxoro viloyatlarida turizm sohasiga yo’naltirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi hamda ekologik loyihalar soni yillik kesimda ko’rsatilgan. Grafik tahlildan ko’rinib turibdiki:

✓ 2020–2022 yillarda Buxoro viloyati investitsiyalar hajmi bo’yicha Xorazmdan ustunlik qilgan.

- ✓ 2023–2024 yillarda esa Xorazm viloyati jadal o`lishni namoyon etib, investitsiya hajmi bo`yicha Buxoroni ortda qoldirgan.
- ✓ Ekologik loyihalar soni bo`yicha Xorazm viloyatida doimiy o`lish kuzatilgan, bu esa ushbu hududda ekologik barqarorlik, ekoturizm va yashil infratuzilma yo`nalishida faol harakatlar olib borilayotganini ko`rsatadi.
- ✓ Buxoro viloyatida ekologik loyihalar soni ancha past bo`lib qolmoqda, bu esa ekologik siyosatni qayta ko`rib chiqish zaruratini ko`rsatadi.

### **Ekologik tahlil**

Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo`yicha amalga oshirilayotgan investitsiyaviy faoliyatning ekologik jihatlari alohida e`tiborga loyiq. So`nggi yillarda turizmning ekologik barqarorligini ta`minlash, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va ekoturizmni rivojlantirish yo`nalishidagi sa`y-harakatlar kuchayib bormoqda.

The International Ecotourism Society (TIES, 2021) tomonidan berilgan metodik ko`rsatmalarda, qishloq turizmi, quyosh panellari, bio xilma-xillikni saqlash, va mahalliy aholini jalb qilish orqali ekoturizmni rivojlantirish bo`yicha xalqaro standartlar ishlab chiqilgan. Bu yondashuvlar Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan ekoturizm loyihalarida qisman tatbiq etilgan. Viloyatda ekologik yondashuvlar ko`proq tabiiy resurslarni asrash, chiqindilarni kamaytirish, yashil hududlarni kengaytirish va energetik tejovchi texnologiyalarni joriy etish, atrof- muhitga minimal zarar yetkazish, mahalliy aholining manfaatlarni hisobga olish va madaniy boyliklarni asrashga qaratilgan. Hozirda Xiva shahri va Qo`shko`pir tumanida ekoturizm bog`lari, biologik xilma-xillikni saqlashga oid loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mavjud turizm loyihalarining bir qismi atrof-muhitga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda, bu esa ekologik baholash tizimini kuchaytirish zarurligini ko`rsatmoqda. Xorazm viloyatida ekologik loyihalar qo`llanilayotgan bo`lsa-da, bu borada tizimli yondashuv hali to`liq shakllanmagan.

O`tkazilgan tahlillar shuni ko`rsatadiki:

- 2020-2024 yillar oralig`ida viloyatda 28 ta ekologik yo`nalishdagi turizm loyihasi amalga oshirilgan.
- Ularning asosiy yo`nalishlari: eko-mehonxonalar, velosiped yo`laklari, yashil hududlar yaratish va ekologik ekskursiyalar tashkil etish;
- Shu davrda turizm sohasidagi umumiy investitsiyalarning taxminan 12–15% ekologik loyihalarga yo`naltirilgan; (Axborotnoma, 2024)
- Ekologik loyihalarining aksariyat xalqaro donorlar, xususan UNEP (2024) (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atof-muhit dasturi) va Osiyo taraqqiyot banki ko`magida amalga oshirilgan.

Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish doirasida joriy etilayotgan loyiha va texnologik yechimlarni yaqqol misoli sifatida Arda Xiva majmuasini ko`rishimiz muin. Majmuada ba`zi kamchiliklar bo`lishiga qaramasdan, bu yerdagi barcha infratuzilma obyektlari elektr energiyasi uchun quyosh panellari o`rnatilgan, bu esa majmuaning energiya mustaqilligi va ekologik toza xizmatlar doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, “Bog`ot – Yagiariq – Xiva” yo`nalishidagi bir nechta turistik qishloqlarda ekoturizmni rivojlantirish maqsadida yo`l infratuzilmasi, qo`llab quvvatlash punktlari va ekologik yo`laklar yaratish bo`yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu sa`y-harakatlar energiya tejovchi yechimlar va barqaror infratuzilmani shakllantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, ekologik yondashuvlarning amalda qo`llanilishida ayrim to`siqlar mavjud. Jumladan, viloyatda quyidagi to`siqlar mavjud:

- Ekologik loyiha va obyektlar uchun mahalliy va xorijiy investitsiyalar yetarli emas;
- Quyosh panellari, yashil texnologiyalar hali har bir turistik maskanda yo`q;
- Mahalliy aholi o`rtasida ekologik madaniyat yetarli darajada emas, natijada chiqindilarni boshqarish muammosi mavjud;

- Ekoturizm infratuzilmasida yashil transport (masalan, elektrobuslar, veloyo'lakar) yetishmaydi;
- Ekoturizm uchun hudud tanlashda atmosfera, suv resurslari va flora- faunaga salbiy ta'sirlar hisobga olinmayapti.

Bundan tashqari, ayrim yirik turistik majmualar va ekoturizm obyektlarida chiqindilarni to'plash va saralash tizmi yetarlicha shakllanmagan. Misol uchun, dam olish maskanlarida va tarixiy obidalarda chiqindi qutilarining yetishmasligi, mavjud qutilarning belgilarisiz yoki yaroqsiz holatda bo'lishi, maxsus saralash (plastik, organik, qog'oz) imkoniyatlarining yo'qligi ekologik madaniyatni shakllantirishda salbiy omil sifatida ko'rilmoqda. Bu esa turistlar tomonidan chiqindilarni tartibsiz tashlash holatlarini keltirib chiqaradi va hudud ekologiyasiga zarar yetkazadi. Hozirgi davrda qadimiy va eng ko'p turistlar tashrif buyuruvchi Xiva shahridagi "Ichon qal'a" majmuasida yetarlicha chiqindi qutilar tashkillashtirilgan bo'lsa-da, ba'zi yangi obyektlarda bu qoniqarli tarzda amalga oshirilmagan. Ayniqsa, havoga shar uchirish kabi ko'rgazmali turizm faoliyatlari tashkil qilinganda, yuqoridan qaraganda chiqindilarning ko'rinishi manzara estetik ko'rinishini buzib, salbiy taassurot qoldiradi. Bu esa turizm faoliyatiga bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### 1-jadval

#### SWOT tahlil: Xorazm viloyatining turizm sohasiga investitsiya jalb qilish imkoniyatlari (Porter, 1985; Jahon banki, 2022)

| S (Strengths) – Kuchli jihatlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | W (Weaknesses) – Zaif jihatlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ Boy tarixiy va madaniy meros (Xiva – YUNESKO merosi ro'yxatida)</li> <li>▪ Turizm uchun tabiiy resurslar va arxeologik yodgorliklar mavjudligi.</li> <li>▪ Davlat tomonidan turizmni ustuvor yo'nalish sifatida qo'llab-quvvatlanayotgani.</li> <li>▪ Ichk turizm bozorining bosqichma-bosqich rivojlanayotgani.</li> <li>▪ Arzon ishchi kuchi va xizmatlar narxining nisbatan pastligi.</li> </ul>                                                                                                   | <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ Transport va logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi.</li> <li>▪ Zamonaviy mehmonxona, restoran va xizmat ko'rsatish infratuzilmasi yetishmovchiligi.</li> <li>▪ Mahalliy kadrlarning xorijiy til va servis bo'yicha malakasining</li> <li>▪ Raqobatbardosh marketing strategiyalarining yetishmasligi.</li> <li>▪ Ba'zi investitsion loyihalarning byurokratik kechkishlarga duch kelishi.</li> <li>▪ Ekologik monitoring tizimining zaifligi.</li> </ul> |
| O (Opportunities) – Imkoniyatlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | T (Threats) – Tahdidlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ Xalqaro grantlar, donor tashkilotlar va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari.</li> <li>▪ Ekoturizm, agroturizm va madaniy turizm yo'nalishlarini kengaytirish.</li> <li>▪ "Ochiq osmon" rejimi va yangi aviaqatnovlar orqali sayyohlar oqimini oshirish.</li> <li>▪ Davlat-xususiy sheriklik asosida yangi turizm obyektlarini barpo etish.</li> <li>▪ "Yoshlar – kelajagimiz" va "Ayollar daftari" kabi ijtimoiy dasturlar orqali mahalliy loyihalarni qo'llab-quvvatlash.</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ Geosiyosiy muammolar va mintaqaviy beqarorlik sarmoya kiritishni cheklashi mumkin.</li> <li>▪ Ekologik muammolar: sayyohlar sonining oshishi bilan tabiiy muvozanatga tahdid.</li> <li>▪ Xususiy sektorning investitsiyalarga nisbatan ehtiyotkorligi (islohotlar sustligi sababli).</li> <li>▪ Hududiy infratuzilmadagi nomutanosibliklar (masalan, tumanlararo teng rivojlanmaganlik).</li> </ul>                                                                                |

#### SWOT tahlil

Porter (2005) tomonidan ishlab chiqilgan raqobat ustunligi nazariyasiga ko'ra, hududlar o'zining noyob resurslariga (madaniy meros, tabiiy landshaftlar) tayanib, turizm raqobatbardosh strategiyalarni ishlab chiqishi lozim. SWOT tahlil yordamida Xorazm viloyatining turizm sohasidagi ustun va zaif tomonlarini aniqlash xalqaro tahliliy metodlarga to'liq mos keladi. Ushbu yondashuv orqali hududning kuchli (Strengths) va zaif (Weaknesses)

tomonlari, shuningdek, mavjud imkoniyatlar (Opportunities) va tashqi tahdidlar (Threats) aniqlanadi. Bu esa strategik rejalashtirishda real holatni tahlil qilish va to'g'ri qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. SWOT tahlili Xorazm viloyatida turizmni ekologik va investitsion jihatdan barqaror rivojlantirish istiqbollarini baholash uchun muhim asos yaratdi.

Xorazm viloyati turizm salohiyatining yuqoriligi va davlat tomonidan sektorni qo'llab-quvvatlash kuchli asos bo'la oladi. Biroq, infratuzilma zaifligi va malakali kadrlar yetishmasligi hal etilishi kerak bo'lgan muhim masalalardandir. Xalqaro hamkorlik va ekoturizm kabi yo'nalishlarni rivojlantirish orqali bu hududda investitsion jozibadorlikni yanada oshirishi mumkin.

### **Investitsiya oqimlarining dinamikasi**

Turizm sohasidagi investitsiya oqimlari 2020-2024 yillar davomida o'sib borgan bo'lsa-da, barqarorlik yetarli darajada emas. Har yili ajratilayotgan mablag'lar hajmi asosan davlat loyihalari hisobidan oshmoqda. Xususi sektor ishtiroki esa sezilarli darajada past. Investitsiyalarning 40% dan ortig'i mehmonxonalar qurilishiga, 25% – transport infratuzilmasiga, 15% – ekologik obyektlarga, qolgan 20% esa boshqa xizmat ko'rsatish infratuzilmasiga yo'naltirilgan (Vazirlik, 2024).

So'nggi besh yillikdagi Xorazm viloyatining turizm sohasiga yo'naltirilgan investitsiya oqimlari barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2020-2024 yillar oralig'ida investitsiya hajmi yilma-yil ortib borgan bo'lib, bu viloyatda turizmni iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan siyosiy va institutsional islohotlarning samarasi hisoblanadi.

Agar 2020-yilda umumiy investitsiya hajmi 42 milliard so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu raqam 58 milliard so'mga yetgan. Keyingi yillarda ushbu o'sish yanada jadallashgan bo'lib, 2022-yilda 73 milliard so'm, 2023-yilda 95 milliard va 2024- yil yakuniga kelib 113 milliard so'mga yetgan. Bu esa besh yilda sarmoya hajmi deyarli 2,7 barobar oshganini anglatadi.

Investitsiya oqimlaridagi bunday o'sish bir nechta omillar bilan izohlanadi:

– Davlat tomonidan yaratilayotgan qulay muhit – turizm subyektlariga soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kredit resurslari orqali qo'llab-quvvatlov berilishi;

– Xorijiy investorlar uchun ochiqlik siyosati. Jumladan, Ipak yo'li jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan turli loyihalarni moliyalashtirish;

– Hududiy brend va madaniy merosning jozibadorligi – Xiva shahri va boshqa tarixiy maskanlarning UNESCO ro'yxatiga kiritilishi Xorazmni investitsiya uchun yanada qiziqarli qiladi;

– Ekologik yondashuvlarning kuchayishi – ekoturizm, yashl infratuzilma va barqaror rivojlanish tamoyillari asosida loyihalarning kengayishi investitsiyalarni jalb etishda muhim rol o'ynadi (Hisobot, 2024).

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar hajmining oshishi asosan mehmonxona infratuzilmasi, yo'l-transport tizimi, axborot markazlar, tarixiy yodgorliklarni restavratsiya qilish hamda ekoturizm obyektlari barpo etish yo'nalishlarida amalga oshirilmoqda.

Alohida ta'kidlash joizki, 2023-2024 yillarda Xorazm viloyatida turizmga yo'naltirilgan sarmoyalar hajmi Buxoro viloyatidan oshib ketgan bo'lib, bu raqobatbardoshlik jihatidan ijobiy signal sifatida baholanadi.

Shunga qaramay, investitsiyalarni jalb qilishda qator to'siq va cheklovlar mavjud. Jumladan:

- Xususi sarmoyadorlar uchun kafolat mexanizmlarining yo'qligi;
- Mahalliy banklar tomonidan turizm loyihalarini moliyalashtirishdagi sustlik;
- Infratuzilmaning ba'zi hududlarda rivojlanmaganligi;
- Tadbirkorlar uchun kreditlar olishdagi byurokratik to'siqlar;
- Investorlar uchun axborot va marketing yetshmovchiligi.

### Xulosa va takliflar.

Tadqiqot davomida Xorazm viloyatida turizm sohasiga investitsiyalar jalb qilish holati, mavjud muammolar, raqobatbardoshlik omillari va ekologik yondashuvlar tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida quyidagi xulosa va amaliy takliflar shakllantirildi:

- Xorazm viloyatida turizmga investitsiyalar jalb qilish jarayonida uchrayotgan muammolar ekologik yondashuv bilan birgalikda tahlil qilindi;
- SWOT, komparativ va deskriptiv tahlil usullari uyg'unlashtirilib, hududiy raqobat ustunliklari va zaif jihatlar aniqlandi;
- Ekoturizm salohiyatini rivojlantirishda quyosh panellari, chiqindilarni saralash tizimi kabi ekologik vositalarning amaliyotga tatbiqi tahlil qilindi;

#### Umumiy tahlil natijalari:

- Deskriptiv tahlil orqali aniqlanishicha, 2020-2024 yillarda turizmga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi barqaror o'sib borgan bo'lsa-da, davlat investitsiyalari ustunligi saqlanib qolmoqda;
- Komparativ tahlilda Buxoro viloyati bilan taqqoslash natijasida Xorazmning ekoturizmga yo'naltirilgan loyihalar soni kamroq ekani aniqlandi;
- SWOT tahlil asosida turizm infratuzilmasi, chiqindilarni boshqarish va ekologik tahdidlar aniqlanib, imkoniyat va tavsiyalar shakllantirildi;
- Ekologik tahlilda chiqindi boshqaruvi, resurslarni tejovchi energiya tizimlari, "Arda Xiva" kabi loyihalardagi ijobiy tajribalarning ahamiyati ochib berildi.

#### Takliflar:

1. Qishloq turizmini rivojlantirish: Homestay, agro-turizm, hunarmandchilik asosida xizmatlar ko'lamini kengaytirish.
2. Eko-loyihalar uchun soliq imtiyozlari: Yashil mehmonxonalar, quyosh panelli inshootlar, chiqindini ajratish tizimlariga imtiyozlar joriy etish.
3. Davlat-xususiy sheriklikni rag'batlantirish: Soddalashtirilgan yer ajratish, grantlar va foizsiz kreditlar orqali sarmoyadorlarni jalb qilish.
4. Turizmga doir ekologik normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish: Barqaror rivojlanish va ekologik muvozanatni ta'minlovchi me'yorlar;
5. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan integratsiyani kuchaytirish: UNDP, ITC, Ipak yo'li jamg'armasi kabi donorlar bilan aloqalarni faollashtirish.
6. Raqamli axborot tizimlari yaratish: Investitsion platformalar, mobil ilovalar va virtual turistik xaritalar orqali tashqi investorlar va turistlar uchun qulayliklar yaratish.

*Yakuniy xulosa:* Xorazm viloyatida turizmga sarmoya jalb etishdagi muvaffaqiyatlar, mavjud muammolar va ekologik tahdidlar o'zaro bog'liq holatda tahlil qilindi. Ekoturizm va barqaror turizmni rivojlantirish uchun zarur omillar aniqlandi. Taklif etilgan chora-tadbirlar asosida, turizm sohasi nafaqat iqtisodiy o'sish manbai, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlaydigan soha sifatida shakllanishi mumkin.

### Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

- Abdullayev S. (2021). *Xorazm viloyatida turizm sohasida investitsiyalar va ularning iqtisodiy samaradorligi*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti.
- ITC (2021). *Green Investments in Tourism Sector*. International Trade Centre.
- Karimova D.A. (2020). *Ekoturizmni rivojlantirishda investitsion yondashuvlar*. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №2.
- Kotler, P. (2012) *Marketing Management*. Pearson Education.

- Nazarov M.B. (2019). *Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari. Iqtisodiyot va ta'lim, №1.*
- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2020–2024). *Turizm sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'yicha yillik statistik ma'lumotlar. stat.uz*
- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2023). *Turizm va servis tarmog'iga jalb etilgan investitsiyalar tahlili. www.mf.uz.*
- Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5611-sonli qarori (2020 yil 4 dekabr). *2021–2025 yillarda turizm sohasini rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida.*
- O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi (2024). *Xiva "Arda" majmuasidagi ekologik yechimlar to'g'risida axborot byulleteni.*
- Porter, M. (1985) *Competitiv Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance.* Free Press.
- Samoylova L. (2018). *SWOT-tahlilning hududiy turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati. Regional iqtisodiyot jurnali, №4.*
- Shohsanam Shonazarova S.Q. (2025). *Xorazm viloyatida turizmga investitsiyalarni jalb qilishdagi ekologik yondashuvlar. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqot ma'lumotlari.*
- Turaqulov S. (2022). *Qishloq turizmi va ekologik yondashuvlar: O'zbekiston tajribasi. Milliy tadqiqotlar jurnali, №3.*
- UNEP (2021). *Ecotourism and Environmental Sustainability. United Nations Environment Programme. www.unep.org*
- UNEP. (2022) *Sustainable Tourism and Environmental Management. United Nations Environment Programme.*
- UNWTO (2022). *Sustainable Tourism and Investment Flows. World Tourism Organization Report.*
- UNWTO. (2023) *Tourism Investment Report 2023. Word Tourism Organization.*